



MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 17-fevral 2022

Ma'qullandi: 22-fevral 2022

Chop etildi: 27-fevral 2022

KALIT SO'ZLAR

kvazi-professional kasbiy faoliyat, loyihalashtirish, kompetensiya, mutaxassis, pedagogik amaliyot, loyihalash metodi, amaliy loyiha, tadqiqotchilik loyihalari, rolli loyihalar.

Bo'lajak mutaxassislarni kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlashning ustivor yo'nalishlaridan biri barcha kompetensiyalarni o'zida mujassamlashtirgan raqobatbardosh kadr sifatida shakllantirishdan iborat. Bilim mutaxassisni o'z-o'zidan kasbiy faoliyatga tayyorlash, ta'lim jarayoni maqsad, vazifalarini belgilash, o'z faoliyatini loyihalashtirish, mavzu bo'yicha tadqiqot ishlarini yo'lga qo'yish, ijodiy fikrlash va kutilgan natijaga erishish uchun xizmat qilmaydi. Bilimlar hajmini orttirish bilan bog'liq tashkil etilgan o'quv jarayoni bo'lajak mutaxassisning mustaqil kasbiy faoliyatini rejalashtirish va tashkil etish uchun etarli emas. Mazkur kamchiliklar bo'lajak biologiya

KVAZI-PROFESSIONAL FAOLIYATNI LOYIHALASH USULLARI

M.H.Raupova

Buxoro davlat universiteti

Biologiya kafedrası o'qituvchisi

E-mail: m.h.raupova94@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6321267>

ANNOTATSIYA

Maqolada bo'lajak biologiya o'qituvchisining kasbiy-pedagogik malakasini shakllantirish imkoniyati sifatida kontekstli ta'lim doirasida tashkil etilgan kvazi kasbiy faoliyat ko'rib chiqiladi. Bo'lajak biologiya o'qituvchilarini bosqichma-bosqich kasbiy faoliyatga o'tishlarida kvaziprofessional faoliyatning o'rni namoyish etildi.

o'qituvchilarining o'z kasbiy faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yish, rivojlantirishda qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Shu nuqtai nazardan bo'lajak biologiya o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda o'z faoliyatini to'g'ri tashkil etish, loyihalash, maqsad va vazifalarni mustaqil belgilash, ta'lim jarayonini boshqarish bilan bog'liq qarorlarni ishlab chiqish va qabul qilish qobiliyatiga ega bo'lishni taqozo etadi.

Shuning uchun talabalarga ushbu bilimlarni nafaqat oliy ta'lim muassasasi o'quv jarayonida samarali qo'llash qobiliyatini o'zlashtirib olish, balki kelajakdagi kasbiy faoliyatida qanday foydalanishni o'rganish ham muhimdir. Buning uchun bo'lajak biologiya o'qituvchilari o'zlarini o'qituvchi



rolida sinab ko'rish imkoniyatiga ega bo'lishi zarur. O'qituvchi-talabalarning tadqiqot faoliyatini tashkilotchisi hisoblanadi. Shu maqsadda bakalavriat dasturida talabalarni pedagogik amaliyoti rejalashtirilgan. Pedagogik amaliyot talabalarni maktabdagi o'quv va kasbiy faoliyat jarayoniga tayyorlashni nazarda tutadi. Bu jarayon bo'lajak biologiya o'qituvchilarining o'quvchilar bilan o'zaro munosabatlar, ularning ta'limi va tarbiyasi bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turidir. Bu bolalarning ta'lim va rivojlanishi uchun qulay psixologik-pedagogik sharoitlarni yaratishda zarur bo'lgan etarli bilim va ko'nikmalarni talab qiladi.

Kvazi-professional faoliyat – bu o'quv faoliyatidan professional madaniyat olamiga o'tishning zaruriy bosqichi. Bu bosqichda mavzuni (o'quv vazifalari, modellari va vaziyatlar tizimidan foydalangan holda kasbiy faoliyatning bilimlari, ko'nikmalari va tajribasini o'zlashtirish), ijtimoiy (ta'lim jarayoni ishtirokchilarining qabul qilingan ijtimoiy me'yorlarga muvofiq o'zaro ta'siri) munosabatlar va psixologik (madaniyatning bir qismi sifatida kasbga yo'naltirish; uning me'yorlari, qoidalari, qadriyatlarini o'zlashtirish orqali) kontekstlari, buning natijasida inson dunyosi - kelajakdagi professional qiyofasining qiymat-semantik tarkibiy qismlaridan iborat. Bu faoliyatning mohiyati shundaki, u real sharoitda amalga oshiriladi va yuqoridagi kontekstlarning birligini ta'minlaydi.

Kvazi-professional faoliyat - bu kontekstli ta'lim shakllaridan biri bo'lib, kasbiy faoliyatning ma'lum bir segmentini modellashtirishni, haqiqiy pedagogik vaziyatlarni yaratishni nazarda tutadi. Kvazi-professional faoliyatga qo'shilish orqali talabalar turli xil kasbiy muammolarni hal etish va pedagogik o'zaro aloqalar tizimini

to'g'ri yo'lga qo'yish, turli muammoli vaziyatlarni mustaqil hal qilishni o'rganadi. Bundan tashqari, bunday turdagi faoliyatni ta'lim faoliyati bilan o'quv va kasbiy faoliyat o'rtasidagi o'tish davrining bir turi deb hisoblash mumkin. Bu talabalarning o'qitish amaliyotiga tayyorlanish darajasini orttiradi va omma oldida o'z fikrini bayon etish, kasbiy bilimlarini namoyon etishdan qo'rqish muammosini hal qiladi. A.A.Verbitskiyning fikriga ko'ra, bu faoliyat akademik o'quv faoliyatidan ta'lim va kasbiy faoliyatga o'tishdir. Talabalar kasbiy faoliyatni amalga oshirmaydi, balki taqlid qiladi. Talaba o'quv ma'lumotlarini faoliyat vositasi sifatida ishlatish tajribasini to'playdi, mutaxassisning xususiyatlarini tobora ko'proq egallaydi, bu esa ushbu ma'lumotdagi ob'ektiv ma'nolarni shaxsiy ma'nolarga, ya'ni kelajakdagi mutaxassisning shaxsiy mulki sifatida bilimning o'ziga, uning kasbiy kompetensiyasiga aylanishini ta'minlaydi.

Kvazi-professional faoliyat talabalarga kasbiy bilimlarni, kompetensiyalarni o'zlashtirish va yangilashga imkon beradi, ma'no shakllantiruvchi kasbiy motivlarni shakllantirishga, kasbiy muhim fazilatlarni va fikrlashni rivojlantirishga, bilimlarni amalga oshirishda tajriba orttirishga, shuningdek hissiy-irodaviy tartibga solishga hissa qo'shadi.

O.B. Dautovning fikriga ko'ra kvazi-professional faoliyat shakllari quyidagilar bo'lishi mumkin:

- 1) loyihalash metodi;
- 2) vaziyat yaratish va hal qilish;
- 3) tashkiliy-faol o'yinlar;
- 4) talabalarning tadqiqot ishlari.

Boy ijodiy ahamiyatga ega bo'lgan loyihalash metodi - bu "pedagogik maqsadlarga erishish uchun foydalaniladigan barcha shaxsiy, instrumental va uslubiy texnologiyalarni ishlashining tizimli to'plami



va tartibini anglatuvchi pedagogik texnologiya misollaridan biridir”.

Loyihalash faoliyati nafaqat talabalar, balki o'qituvchilar tomonidan ham amalga oshiriladi. Darhaqiqat, o'qituvchining barcha ishlari kunlik dizayndir. Bizning ishimiz aniq maqsadga ega. Biz maqsadlarni, vazifalarni belgilaymiz, ma'lumot qidiramiz, qayta ishlaymiz, natijalarni ommaga taqdim etamiz. Shuning uchun, zamonaviy tilda dars rejasi asosan “dars loyihasi” nomi bilan yuritiladi.

Loyiha - bu o'qituvchi tomonidan maxsus tashkil etilgan va mustaqil ravishda talabalar tomonidan bajariladigan, ijodiy mahsulotni yaratish bilan yakunlanadigan harakatlar majmui.

Talabalar loyihalar ustida ishlashda:

- alohida yoki guruh bo'lib hayotdagi dolzarb masalalarni, bilimlarning turli sohalaridagi muammolarni aniqlaydi;

- vazifalarni belgilaydi, ish rejasini tuzadi, shu orqali muammoni hal qilish yo'llarini izlaydi, tadqiqot ob'ektini aniqlaydi;

- farazlarni ilgari suradi, tabiiy ob'ektlar bilan tajribalar o'tkazadi, olingan ma'lumotlarni tizimlashtiradi, turli manbalardan olingan ma'lumotlarni tahlil qiladi va xulosa yasaydi. Xulosa qilishda o'qituvchi talabalarga tajriba ma'lumotlarini qayta ishlashga, natijalarni hujjatlashtirishga va albatta, hamkorlik qilish qobiliyatini rivojlantirishga yordam berishi kerak;

- mantiqiy dalillar tizimini yaratadi, kompyuter, multimedia uskunolari yordamida loyiha himoyasini tayyorlaydi;

- loyiha taqdimotida talaba o'z faoliyati natijasini taqdim etadi, masalani jamoatchilikka etkazadi, bu muammolarni hal qilish echimlarini ko'rsatib beradi. Ushbu jarayonda talabalarining nutq san'ati va madaniyatini o'zlashtirish ko'nikmalarini rivojlantirishga erishiladi.

Loyihalash texnologiyasi talabalarining yoshi va individual xususiyatlariga bog'liq bo'lib, mustaqillikka, o'zini o'zi anglash zarurligiga o'rgatadi.

Loyihalarni talabalarining faoliyatidagi ustun tomonlariga qarab quyidagicha tasniflash mumkin:

- Amaliy loyihalar: bu loyiha ishtirokchilarining yoki tashqi buyurtmachining ijtimoiy manfaatlariga qaratilgan bo'ladi. Bunda mahsulot oldindan belgilangan bo'lib, muayyan faoliyatda qo'llaniladi.

- Tadqiqotchilik loyihalari: bu loyiha chinakam ilmiy izlanishlar kabi tuzilgan bo'lib, tanlangan mavzuning dolzarbligiga asoslanadi, tadqiqot maqsadlarini belgilaydi, tasdiqlash bilan farazni majburiy ravishda ilgari suradi va olingan natijalarni muhokama qiladi.

- Axborotli loyiha: bunda talaba ob'ektni, hodisani tahlil qiladi, umumlashtiradi va keng auditoriyaga taqdim etish uchun ma'lumot to'playdi.

- Ijodiy loyihalar: bunda talaba loyiha natijalarni taqdim etishga erkin va noan'anaviy yondashuvni e'tiborga oladi. Bular almanaxlar, teatrlashtirilgan tomoshalar, sport o'yinlari, tasviriy yoki dekorativ san'at asarlari, videofilmlar bo'lishi mumkin.

- Rolli loyihalar: Ushbu loyihalarda struktura aniqlanmaydi va ish tugagunga qadar ochiq bo'ladi. Loyiha qatnashchilari muayyan rollarni bajaradilar. Rollarga muvofiq holda ularning vazifalari aniqlanadi. O'yin syujetiga muvofiq ular rollarni bajarishi, tegishli hollarda “mansabdor shaxs” sifatida muloqotga kirishishi, bunda mavjud qobiliyat va iste'dodlari, o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini safarbar etishlari lozim. Loyihani hal etish jarayonida ko'zlangan natijaga erishishlari uchun juda ko'p mehnat qilishlari, izlanishlari, mustaqil va ijodiy fikr yuritishlari, mustaqillik va onglilik talab etiladi. Bu yerda



ijodiy izlanish mavjud, lekin o'quvchilar ma'lum rollarni bajarish orqali loyiha hal etilganligi sababli rolli o'yin loyihalar sanaladi.

Loyihalar ustida ishlash individual bo'lishi mumkin, lekin ko'pincha bu guruhda amalga oshirilganda ko'proq natijaga erishiladi. Guruh loyihalari talabalarning asosiy kompetensiyalarini shakllantirishda katta ahamiyatga ega: jamoa bilan ishlash, vaziyatni tahlil qilish, qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Tajribadan, shuni ta'kidlash joizki, eng qiyin jarayon - loyihada ishlashning dastlabki bosqichini tashkil qilish. Ba'zan mavzuni tanlash shunchaki qiyin kechadi: axir talabalarning qiziqishlari, masalaning dolzarbligini hisobga olish kerak. Deylik mavzu aniqlandi. Endi siz guruhdagi rollarni taqsimlashingiz kerak: nazariy materiallarni to'playdigan, tahlil qiladigan, mavzu bo'yicha adabiyotlar tahlilini tayyorlaydigan talabani tanlang. Boshqa talabalar bilan esa birgalikda tadqiqotning amaliy qismini amalga oshirish lozim, ya'nikim: tahlil qilinayotgan materialni tasvirlash uchun tajribalar o'tkazish, fotolavha yoki videofilmlar olish va shu kabi boshqa jarayonlar ustida ishlash shular jumlasidandir. Keyinchalik, universitetda, so'ngra mintaqaviy konferensiyada tadqiqot loyihasining taqdimotiga faol tayyorgarlik boshlanadi. Hisobot tayyorlanadi, qoida tariqasida uni tayyorlashda nodavlat ta'lim muassasasining barcha a'zolari yoki talabalar qatnashadi. Tadqiqot ishining asosiy muallifi ma'ruza

loyihasini an'anaviy tarzda taqdim etadi, so'ngra taqdimot muhokama qilinadi va kamchiliklari ko'rib chiqilib tuzatiladi. Taqdimotni oldindan tinglashning asosiy maqsadi ma'ruzachiga kutilmagan va mulohazali savol berilganda ham, ularga qiynalmasdan javob bera olishini shakllantirishdir. Talabalar birgalikda barcha savollarga javob berish uchun reja tuzadi.

Nima uchun tadqiqot oldindan muhokama qilinishi kerak? Haqiqat shundaki, loyihani ommaviy ravishda himoya qilishda talabalar xavotirga tushishadi. Natijada - kuzatuvchilar oldida hayajonlanish, fikrni jamlay olmaslik, o'z fikrlarini ifoda eta olmaslik holatlari kuzatiladi. Dastlabki tinglash jarayonida talaba auditoriya oldida o'zini tutish tajribasini to'playdi, savollarga to'g'ri javob berishni o'rganadi, bir so'z bilan aytganda nutq so'zlash va munozarani o'tkazish tajribasiga ega bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, har bir talaba ijodiy salohiyatini oshirish, individual qobiliyat va moyillikni hisobga olgan holda kasbiy faoliyatda o'zini namoyon qilish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Bunda kvazi-professional faoliyatning loyihalash usuli o'qituvchi va talaba o'rtasida tajriba almashishiga, jamoa bilan ishlashiga, nutq madaniyatining shakllanishiga, o'zining bilimni tinglovchiga aniq va tushunarli tarzda etkazish usullarini o'zlashtirishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ахмедова Г. У., Салимова С. Ф. Чтение на иностранном языке как средство развития опыта общения учащихся //Достижения науки и образования. – 2017. – №. 4 (17).
2. Ахмедова Г. У., Салимова С. Ф. Собственные имена в ономастике немецкого языка //Молодой ученый. – 2016. – №. 7. – С. 1139-1141.
3. Salimova S.F. Improving the professional competence of future biology teachers //Archive of Conferences. – 2021. – С. 69-71.



4. Salimova S. General structure of spinal animals features //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 3. – №. 3.
5. Salimova S. Ta'lim natijalarini baholashga kompetentli yondashuv mohiyati //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 3. – №. 3.
6. Salimova S.F. Formation of professional skills of future biology teachers and development of its criteria //Academicia: an international multidisciplinary research journal. – 2021. – Т. 11. – №. 2. – С. 769-772.
7. Salimova S.F. Improvement of methodical communication system //Archive of Conferences. – 2020. – Т. 4. – №. 4. – С. 77-78.
8. Salimova S. Formation of professional skills of future biology teachers and development of its criteria: formation of professional skills of future biology teachers and development of its criteria //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2020. – Т. 10. – №. 9.
9. Salimova S. Method of improving self-study works of students in biology by means of informational resources //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2020. – Т. 2. – №. 2.
10. Salimova S. General structure of spinal animals features // Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 3. – №. 3.
11. Salimova S. General structure of spinal animals features // Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 3. – №. 3.
12. Salimova S. Ta'lim natijalarini baholashga kompetentli yondashuv mohiyati // Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 3. – №. 3.
13. Salimova S. Method of improving self-study works of students in biology by means of informational resources //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2020. – Т. 2. – №. 2.
14. Salimova S. Improving the methodological training and research activities of future biology teachers //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2019. – Т. 7. – №. 12.
15. Раупова М. Ижодий ўз ўзини рўёбга чиқаришда кваз касбий фаолиятининг роли //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 5. – №. 5.
16. Раупова М. Biologiya ta'lim yo'nalishi talabalarining loyiha faoliyatini tashkil qilish amaliyoti //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 5. – №. 5.
17. Раупова М. Bo'lajak biologiya o'qituvchisi kvazi-professional faoliyatini loyihalash usullari //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 1. – №. 1.
18. Салимова С. Ф. "Тюнинг" ("Tuning") халқаро лойиҳаси ва унинг моҳияти //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 1013-1019.
19. Салимова С. Ф. Бўлажак биология ўқитувчилари касбий компетенциялари шаклланганлик даражасини баҳолашнинг ўзига хос жиҳатлари //Scientific progress. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 1087-1094.